

Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
professori

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEHNAT VA TURMUSH ESTETIKASINING TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mehnat va turmush estetikasining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi muhim jihatlari, mehnat qilish mamlakatni taraqqiy ettirish sur'atlarini oshirish, milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, har qanday davlatning boyligi hisoblangan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy qismi - insonning mehnat faoliyati samaradorligini oshirish, oilaning tarbiyaviy ta'siri, qadriyatlarimiz milliy an'analarimizning yoshlar hayoti va turmush tarzini yaxshilashdagi yo'llari bayon etilgan

Kalit so'zlar: tabiat estetikasi, harakat, sayohat, o'yin, an'ana, chillik, tortishmachoq, jismoniy kamolot, mehnat, turmush estetikasi, to'y, farzand, qadriyat, milliy an'ana, bola tarbiyasi.

ВЛИЯНИЕ ЭСТЕТИКИ ТРУДА И БЫТА НА ПОВЫШЕНИЕ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье рассматриваются важные аспекты эстетики труда и жизни в воспитании духовности молодёжи, роль труда в повышении темпов развития страны, улучшении национальной экономики, повышении эффективности человеческого труда, являющегося составляющей производительных сил, считающихся богатством любого государства, воспитательное влияние семьи, способы, которыми наши ценности и национальные традиции улучшают жизнь и образ жизни молодёжи.

Ключевые слова: эстетика природы, движение, путешествие, игра, традиция, соревнование, физическое развитие, труд, эстетика жизни, свадьба, ребёнок, ценность, национальная традиция, воспитание ребёнка.

THE IMPACT OF LABOR AND LIVING AESTHETICS ON THE SPIRITUALITY OF YOUTH

Annotation. This article describes the important aspects of the aesthetics of work and life in raising the spirituality of young people, the role of work in increasing the pace of development of the country, improving the national economy, increasing the efficiency of human labor, which is a component of the productive forces considered the wealth of any state, the educational influence of the family, the ways in which our values and national traditions improve the lives and lifestyles of young people.

Keywords: aesthetics of nature, movement, travel, play, tradition, competition, physical development, work, aesthetics of life, wedding, child, value, national tradition, child upbringing.

O'zbekistonda keng ko'lamli va chuqur ijtimoiy-iqtisodiyislohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning dastlabki natijalari aholi hayoti va kundalik turmushida o'zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o'sib bormoqda. Bunday ijtimoiy faollikka ijtimoiy-mehnat munosabatlarini muttasil takomillashtirib borish, mehnatni makroiqtisodiyot, tarmoqlar va korxonalar miqyosida oqilona tashkil qilish – har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan mehnat omilidan samarali foydalanish – orqali erishiladi

“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, ularni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida

tarbiyalash, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, ularda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish[1] kabi maqsadlar belgilangan bo'lib, ushbu maqsadlarni amalga oshirish yoshlarda estetik ong va madaniyatni yuksaltirish, ularning nafosat tarbiyasini yanada takomillashtirish asosida amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga, madaniyat va san'atga keng jalb etish orqali amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusda ham yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Jamiyat hayotida insonning mehnat faoliyati estetik asosda tashkil etiladi, estetik faoliyat subyekti bo'lgan inson o'zining ongli faoliyatida mehnat jarayoniga ijodiy tarzda yondashadi, mehnatdagi yutuqlaridan zavq olib lazzatlanadi. Insonning ichki va tashqi go'zalligini uyg'un tarzda rivojlantirish, uning kundalik amaliy faoliyatida go'zallik qonuniyatlariga amal qilish mamlakatimizda barkamol insonni tarbiyalash sohasidagi siyosatning muhim jihati bo'lib hisoblanadi[2.8].

Mamlakatni taraqqiy ettirish sur'atlarini oshirish, milliy iqtisodiyotni yuksaltirish, birinchi navbatda, har qanday davlatning boyligi hisoblangan ishlab chiqaruvchi kuchlarning tarkibiy qismi - insonning mehnat faoliyati samaradorligi bilan bog'liqdir. Unumli mehnat milliy iqtisodiyotni rivojlantirish sur'atlarini barqaror oshirishning bosh omili bo'libgina qolmasdan, insonning farovon turmush kechirishini ta'minlash, ehtiyojlarini qondirish funksiyasini ham bajaradi. Mehnat estetikasi insonga kuchli va ko'p-qirrali ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik ma'no-mazmun baxsh etadi hamda uning ma'naviy kamol topishiga ko'maklashadi. Ushbu jarayonda ijod qanchalik ustuvor, mukammallik qancha yuqori bo'lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma'naviy ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Insonning amaliy faoliyati, moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyat organik ravishda birlashadi. Moddiy boylikning bironta ham turini inson aql-idroki va tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Ular uzviy bog'liq bo'lib mehnat amaliyoti insonning yaratuvchanlik qobiliyatni yuzaga chiqarib qolmay, yaratilayotgan go'zallik uning qo'li bilan yaratilgani, uning ruhiy-estetik jihatdan ham rag'batlantiradi, o'ziga ishonch tuyg'usini orttiradi, mukammallikka undaydi[3].

Fanda ham mehnatning o'rni va u olimga beradigan estetik zavq, quvonch san'atdagidan kam bo'lmay, ilmiy ijod va badiiy ijod olim va san'atkorga nihoyatda katta zavq-shavq bag'ishlaydi. Ilmiy mehnat tabiatan estetik kechinmalarga boy bo'lib, unda bilimga bo'lgan ishtiyoqni, ijod hissini va insonning hayratlanish qobiliyatini namoyon qiluvchi botiniy kuch mavjuddir. Fan tarixi unda ikki sifat – axloqiyshaxsiy va estetik ibtidoaning mavjudligini ta'kidlaydi. Buni V.A. Engelgart shunday ifodalaydi: "Ijod – san'atning mohiyati. U xuddi shu darajada fanning ham mohiyatidir. Har ikki holatda insonning yaratish, ya'ni, o'zligini namoyon qilish qobiliyati muhim. Ilmiy kashfiyot, huddi san'at kabi, ijodkorning muayyan xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi va keyingi hayoti davomida butun insoniyat boyligiga aylanadi"[4.276]. Ijodiy mehnatni o'z hayotining ma'nosi deb bilgan ilm fidoyisigina haqiqiy olim bo'lib hisoblanadi. Bugungi yozuvchilar va olimlar o'z mehnati jarayonini kompyutersiz, diktofonsiz tasavvur qilolmaydilar, rassomlar, qo'shiqchilar va boshqalar kompyuter texnologiyasidan foydalanadilar, elektron cholg'u asboblari ham ma'lum ma'noda texnikaning estetiklashuvidan dalolat beradi. Bunday misollarni kundalik hayotdan ko'plab keltirish mumkin bo'lib, barcha hodisalarda dizayner tomonidan mukammallashtirilgan go'zallik ijodkorning ma'naviy-ruhiy, estetik histuyg'usi, didi va orzusida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalar va mulohazalar. Vaqt hamisha olg'a intilib, hamma kishilarni turmush jarayoni sari yetaklaydi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida inson o'zida ajoyib va g'aroyib estetik ideallarini namoyon eta boradi. Ota-ona farzandiga nasihat qilar ekan, turmush, hayot tez o'zgaruvchan va murakkabligini aytib, ularda did, ong, nafosat ideallarini boyitadi. Turmush estetikasi oilada ko'proq qizlarda onaga, o'g'il bolalarda esa otaga taqlid qilish asosida rivojlanadi. Oilada turmush estetikasini ona qiziga o'rgatarkan, "mehr ipi bilan tikilgan ko'rpa, onalarning dil qo'shig'i bo'lib yangragan alla, ona quchog'iday iliq beshik, qizaloqning joni-dili bo'lgan qo'g'irchoq, bola boshidagi "ipaklari tillodan" do'ppi, tokchadagi patnis, laganlar, taxmondagi quticha, sandiq, qoziqdagi beqasam to'n, uy peshtoqini bezagan gullar – bularning hammasi turmushimizning bezagidir" [5.100], deb ta'kidlaydi.

O'zbek xalq ta'lim va tarbiya tizimida qo'llaniladigan tarbiyaviy usullar va vositalar ko'proq bolalarda insoniy va estetik his-tuyg'ularni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, insonlarda mehr va muhabbatli bo'lish, did bilan kiyinish, doimo shirin so'zlash, kamtarin va sofdil bo'lish kabi xislatlarni kamol toptirib boradi. Shuningdek, bolalarni mehnat tarbiyasiga o'rgatish, ularning kundalik hayotlarida an'anaga aylanib qolgan hovlilarga chiroyli qilib suv sepish, ota-onaga ko'maklashish, mehmon kutish va mehmonga borish odobi, hammaga izzat-hurmat bilan muomalada bo'lish kabi tarbiya jarayoni ham turmush estetikasiga bevosita bog'liqdir. Xalqimizning latofat va nazokatga boy "to'y marosimlari – beshik to'yi, sunnat to'yi, nikoh to'yi, sayillar – dala sayli, gul sayli, qovun sayli, yig'in – tomosha, tug'ilgan kunni nishonlash, yigit bazmi, qiz majlisi, istirohat bog'larida bo'lish, ommaviy yig'in hamda tomoshalarga qatnashish"[6.354] kabi ko'plab estetik tarbiyaga oid milliy an'analari donishmand otabobolarimizning bizga qoldirgan merosidir. Ulardan oqilona foydalanish hamda turmushimizni kundan-kunga go'zal qilib borish bizning oldimizda turgan asosiy vazifadir. Shunday ekan, har bir kishi o'z xalqi va butun jahon an'analarga hurmat bilan qarashi, farovon va go'zal hayot kechirishi, serqirra va chiroyli dunyoqarashga ega bo'lishi, doimo xushmanzara tabiat quchog'ida yayrab, xushchaqchaq kayfiyatda bo'lishi lozim. "Tarbiyali, og'ir-bosiq, oqila ona turmushga chiqqan qizini har gal ko'rganida "kuyovimni hurmat qil" deb tayinlab turadi"[7.83]. Bu so'zlar zahirida qanchalik odob-axloqqa oid go'zal tuyg'ular jilvasi aks etganligini anglamoq zarur. Oilada er-xotin bir-birini qanchalik hurmat qilishi, xulq-atvori bevosita bolalari ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Oilada ota-onaning o'zini tuta bilishi, xulq-atvori, odati estetik va axloqiy tarbiyasida yaqqol aks etadi. Oiladagi katta odamlarning xulqatvor estetikasi – muomalasi, didi, aql-zakovati, yurish-turishlari, kiyinishlari, zehn va idroklari, uy tutishlari bolaning nazaridan chetda qolmaydi. Katta odamlar bunga ahamiyat bermasliklari mumkin, lekin bola har doim zimdan nazar solib yuradi. Vaholanki, taqlidchanlik bolaning insoniy fazilatlar, estetik kechinmalarni o'rganish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, bolalik uyda katta odamlar nojo'ya xulqatvor va qo'pol xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi, har jihatdan, ya'ni axloq, odob va estetik jihatdan bolalarga o'rnak bo'lishlari kerak. Shuning uchun ham "Bola oldida behayo so'zlarni aytish, bachkana qiliq, xatti-harakatlar qilish bola tarbiyasiga yomon ta'sir etadi. Nafosat tarbiyasi orqali ovqat pishirish, dasturxon atrofida o'tirib ovqatlanish jarayonidagi azaliy sharqona odat, axloq-odob qoidalariga amal qilish o'rgatiladi"[8.391-392]. Mana shunday estetik tarbiya asosida oilada bolalar oilaviy munosabatlar go'zalligiga ko'proq e'tibor beradi.

Xulosa. Xalqimiz o'zining estetik tarbiyasi bilan nafaqat milliy g'urur, milliy madaniyat va ma'naviyatni, balki tabiat go'zalligini jamiyat jamolini, insonlar badiiy tafakkurini ko'z ilg'amas jabhalarini anglab oladi. O'z millatini sevadigan har bir inson ruhiy tuyg'ulari, ichki kechinmalari bilan xalqning yutuqlari, obro'-e'tibori, go'zallik olamidan faxrlanadi, zavqlanadi, uning chiroyiga-chiroy qo'shishga intiladi. Milliy g'ururi, estetik tarbiyasi yuksak inson o'z elining madaniyatini e'zozlaydi, ma'naviyatini, nodir asarlari va boy merosini qadrlaydi, ularning buyuk o'tmishiga egaligidan xursand bo'ladi. Inson tomonidan o'z estetik tarbiyasini boyitishi moddiy, ma'naviy meroslarni o'zlashtirish, urf-odatlar, an'analarni, qadriyatlarini mukammal bilish, yuksak his-tuyg'ularni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida estetik tarbiya bilan ma'naviyat uzviy ravishda bog'langan bo'lib, ijtimoiy hayotimizning hayajonli, ehtirosli ko'rinishlarini o'zida aks ettirmoqda. Ayniqsa, ma'naviyatni

rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'ular, milliy g'urur va estetik tarbiyaning ajoyib ko'rinishlarini bir-biri bilan uyg'un holda o'rganib borish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti jamiyat a'zolaridan nafosat qonunlari asosida yangicha fikrlash, mehnat qilish madaniyati, turmush tarzini shakllantirishni talab qilmoqda. Ayni chog'da yoshlar estetik tarbiyasida xuddi shunday dunyoqarash shakllanayotganligi quvonarli holdir. Ma'naviyatimiz tarbiyaviy asoslarining bor kuchi, mazmunining chuqurligi va rangbarangligi, uning ko'hna tarix qa'riga chuqur singib ketganligi, hozirgi salohiyati cheksiz ekanligi, estetik madaniyatning mohiyatini insonlar qalbiga olib kirishda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan masalalardir. Go'zal turmush tarzi inson hayot faoliyatining barcha sohalariga taalluqli bo'lib, inson tug'ilgandan keyin uning oilasidagi tarbiyasi, insonning muomala madaniyati, kiyinishi, mehnat faoliyati, yaratuvchilik qobiliyati, ijodkorligi estetik me'yor va tushunchalar asosida baholanadi. Insondagi yuksak estetik did, yuksak estetik his-tuyg'ular insondagi oliyjanob shaxsiy fazilatlar hisoblanib, bu fazilatlar yoshlikdan boshlab oilada va turli ta'lim-tarbiya muassasalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar natijasida shakllantiriladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/5841063> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони. 2022 йил 28 январь, № ПФ-60.
2. G'aybullayev O Nafosat falsafasi. Darslik Samarqand: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. 8 bet
3. <http://hozir.org/i-maruza-mashfulotlari-v4.html?page=154>
4. Энгельгарт В.А. Познание явлений жизни. – Москва: 1984. -С.276.
5. Махмудов Т. Гўзаллик ва ҳаёт. –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.100-бет.
6. Мавлонова Р., Тўраева О., Ҳоликбердиев К. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 354-бет.
7. Ватан туйғуси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 83-бет.
8. Мавлонова Р., Тўраева О., Ҳоликбердиев К. Педагогика. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. 391- 392 бетлар.